

## IMOM AL-BUXORIY BUYUK MUHADDIS VA MA'RIFAT ASOSCHISI

*Samiev Asroridin Sayfidinovich,  
Termiz davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasini dotsenti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston zaminida tug'ilib voyaga yetgan va dunyoning ilm-fan rivojiga mislsiz hissasini qo'shgan, biliimi, zukkoliqi, kuchli noyob xotiraga ega ekanligi bilan butun dunyo olimlarini hayratga solgan, islam dunyosida "Amir ul-mo'minin" "Imom al-muhaddisiyn", ("Barcha muhaddislar peshvosi") degan sharaflı nomlarga sazovor bo'lgan vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning hayot faoliyati, ilmiy merosi va jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi to'g'risida fikr yuritgan bo'lib, mazkur ilmiy, ma'rify va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid manbalardan barkamol avlodning ta'lif-tarbiyasida foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi bayon etilgan.*

*Tayanch so'zlar: Ilm, fan, ilmiy meros, muhaddis, Islom dini, ma'naviyat, ma'rifat, axloq, hadis, iste'dod, qobiliyat, globallashuv, ta'lif, tarbiya.*

**Аннотация.** В этой статье излагаются, размышления о жизнедеятельности нашего соотечественника, родившегося и выросшего на земле Узбекистана Имама ал Бухари, его научном наследии и беспрецедентном вкладе в развитие мировой науки, поразивший ученых всего мира своими знаниями, сметливостью, силой уникальной памяти, удостоенного почетных наименований "Амир угл-мүминин" ("Предводитель всех мусульман"), "Имам ал-мұхаддисий" ("Насставник всех хадисоведов"), также использование источников, связанных с этим научным, образовательным и духовно-нравственным воспитанием совершенного поколения являющейся одной из актуальных проблем современности.

**Ключевые слова:** Знание, наука, научное наследие, хадисовед, Исламская религия, духовность, просвещение, этика, хадисы, талант, способности, глобализация, образование, воспитание.

**Abstract.** In this article, "Amir ul-mo'minin" "Imam al-muhaddisiyn", who was born and raised in the land of Uzbekistan and who made an unparalleled contribution to the development of world science, who surprised the scientists of the world with his knowledge, intelligence, and strong unique memory, who had been our compatriot in the Islamic world and awarded the honorable title of "Leader of All Muadhdith's", our compatriot Imam-al Bukhari's life activity, scientific heritage and contribution to the development of world science, and the use of these sources of scientific, educational and spiritual-ethical education in the education of the current generation it is stated and it is commented as one of the urgent problems of the day.

**Key words:** Science scientific heritage, muhaddis, Islamic religion, spirituality, enlightenment, morality, hadith, talent, ability, globalization, education, upbringing.

Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba'zan "Imom al-muhaddisiyn" (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba'zan amir ul-mo'miniy fi-l-hadis (Hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-mug'iyra ibn Bardazbeh ibn Bazabehdir. Mutafakkir Abdurahmon Jomiy mashhur muhaddisning ilmiy-ijodiy salohiyatiga yuksak baho berib, "Batxa (Makka) va Yasrib (Madina) da yasalgan tanganing sayqali Buxoroda kamoliga yetdi", -deb yozgan yedi.

Bu fikr tarixiy adabiyotlarga qayd qilingan bo'lib, ko'pchilik muhaddislarning ta'kidlashlaricha, "Bardazbeh" arabcha "zori" (ziroat, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi) ma'nosini bildiradi. So'ngi keltirilgan ikki ismi –ibn Bardazbeh ibn Bazabeh ko'rini turibdiki, Imom al-Buxoriyning asl nasabi bir tomoni arablarga va bir tomoni ajamlarga (forslarga) borib taqaladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998 yil PF-2110-tonli Farmoni bilan, buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ilmiy merosini o'rganish va uni jamlab tarjima qilib ko'p kitobxonlar jamoasiga yetkazish maqsadida Samarqand viloyatida Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi Samarqand viloyatidagi bo'limi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 iyuldag'i №483-tonli Qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro Ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati tashkil etildi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 16-apreldagi PF-5416-tonli farmoni bilan O'zbekistonda ilk marotiba hadis ilmi maktabi tashkil etildi va "Hadisshunoslik" ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasidagi kadrlar tayyorlash yo'lg'a qo'yildi. Va shu qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 27 martdagi PQ-2855-tonli Qarori qabul qilindi.

Prezidentning ushbu Qaror va Farmonlarini ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz davlat pedagogika instituti, pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishiga professor-o'qituvchilari tomonidan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi va boshqa muhaddislarning ilmiy va ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Hadir ilmi tarixi va uning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganuvchi tadqiqotchilariga ma'lumki, "Sahih" yo'nalishining asoschisi, eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy milodiy 810 yil, 13 mayda (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) dunyoda olim ualamo va shayxu avliyolari bilan ma'lumu mashhur bo'lgan Buxoroi Sharifning ziyoli bir xonadonda dunyoga keladi. Otasi Shayx Ismoil ibni Ibrohim hadis ilmidan boxabar bo'lib ko'proq tijorat bilan shug'ullangan. Imom al-Buxoriyning otasining ismi sharifi va umuman shajarasidan xulosaga kelishi mumkinki, Imom al-Buxoriyning nasabi bir tomoni Ibrohim Xalillullohga, hamda Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassalamga borib taqaladi.

Ismoil kasal bo'lib to'shakda yotgan vaqtida yonida do'stlar kelib: "Ey Ismoil qanday qilib shunday dono va oqil farzandni tarbiyaladingiz, buning siri nimada deganda" u kishi qisqa qilib shunday javob beradi. "Men o'yimga harom narsa u yoqda tursin, shubhali narsani kiritganim yo'q". Men farzandlarimni halol non nasiba bilan boqdim mazmunidagi fikrni aytadi. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, otalari ham juda bilimli, dono, taqvodor va parhezgor odam bo'lgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha Imom al-Buxoriy bolaligida noma'lum sabablarga ko'ra ko'zlarini ojiz bo'lib qoladi. Onasi kechalari ibodat qilib Allohdan farzandini ko'ziga shifo berishni yolvorib so'raydi. Bu holat shundan dalolat beradiki, onasi ham pokiza, taqvodor va ilmli ayol bo'lgan. Arab va fors-tojik tillarini yaxshi bilgan va kechalari Qur'on tilovat qilib chiqqan.

Onasi bir kecha uzoq ibodat qilib farzandi Abdullohning ko'ziga shifo so'rab joynamozni ustida o'xlab qoladi. Tushida Ibrohim Xalillullohni ko'radi, u kishi aytadi: "Ey onai zor turing iltijolaringni Alloh qabul qildi va farzandingizni ko'zini nurini qaytardi". Onai zor xursand bo'lib

joyidan turib farzandini yuzini olib qarasa dar haqiqat Abdullohning ko'zlarini ochiq onaga qarab kulimsirab turibti.

Bolaligidan otadan yetim qolgan. Maktabda savod chiqargan va 10 yoshidanoq hadis ilmini katta qiziqish bilan o'rgana boshlaydi. Yoshlik chog'idan boshlab turli roviylardan eshitgan hadislarni yodlab borar edi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar to'plagan hadislarni yod olgan, hadis rivoyatchilar haqidagi bahs-munozaralarda faol ishtirot etgan.

Imom al-Buxoriy 825 yilda, o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkai Mukarrama va Madinai Munavvarada bo'lib, hajj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo'lib, safar jarayonida muhaddislardan hadis ilmini o'rganar edi. Olti yil Hijozda qolib ustozlardan hadis ilmidan ta'lim oladi. Shu bilan birga, Damashq, Kohira, Basra, Bag'dod shaharlarida mashhur olimlardan fiqh ilmidan dars oladi, o'zi ham bahs munozaralarda ishtirot etadi, tolibi ilmlarga dars beradi.

Imom Buxoriy juda ham iste'dodli, qobiliyatli, o'tkir zihni va o'ta kuchli "fenomenal" (noyob) xotiraga ega bo'lgan.

Manbalarga ko'ra, Bag'dodda istiqomat qilgan paytida ko'pincha oyning nurida ijod qilib, qorong'i kechalari sham yorug'ida kitob yozar ekan. Agar tunda bexosdan bixor-bir fikr mulohaza kelib qolsa, shamni yoqib darhol fikrini qog'ozga tushirar, shu taxlitda ba'zi kechalari shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan.

Imom Buxoriyning o'tkir zehni va kuchli xotira egasi ekanligini qo'yidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra "U qaysi bir kitobni qo'lga olib bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaveradi". Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra, yuz ming sahib (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahib (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. O'z shogirdlaridan Amir ibn Fallos aytadi: "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriya ma'lum bo'lmagan hadis, albatta ishonchli hadis emasdur". Ustozi Imom Ahmad ibn Muhammad aytadi: "Islom dunyosida Ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas".

Imom Buxoriyning o'tkir zehni va kuchli xotiraga ega ekanligi haqida shunday rivoyat keltiradi: "Imom Buxoriy bilan Basrada hadis ilmidan saboq olgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: "Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustozi rivoyat qilgan hadislarni biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat qulog solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustozi qaryib 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriya: "Sen nega hadislarni yozmaysan?" -deb so'rigan vaqtimizda: "Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og'zidan yodlab olayotirman", -dedi-da, ustozi o'sha kun rivoyat qilgan barcha hadislarni bir chekkadan yoddan aytib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarmizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo'ldik".

Imom Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini to'qsonga yaqin deb ko'rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-G'artobi, Ubaydulla ibn musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamidiy, ibn Rahavayh nomi bilan mashhur imom Is'hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniyalar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar Is'hoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Halaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termizi, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Hajjojlarga o'z vaqtida ustozlik qilgan.

Imom al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining yetuk olimi bo'lsa ham, vaqt kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o'rgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitgan. Undan to'qson ming kishi ishonarli hadislarni eshitgan.

Imom al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, tolibi ilm va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroya kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Buxoriy bu taklifni qabul etmaydi va: "Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarini uyimga yoki masjidga yuborsin", -deb javo beradi. Al-Buxoriy bilan Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasidagi munosabatlarda raxna tushadi. Bunga ba'zi Imom Buxoriya nisbattan hasad va adovati borlar foydalaniib Imom Buxoriy bilan amir o'rtalarida fitna chiqarish uchun Imom Buxoriyning so'zlariga qo'shib amirga yetkazish ham sabab bo'ladi. Amir buyuk allomani Buxorodan chiqib ketishga farmon beradi. Samarqand ulamolari buni eshitib vakil yuborib o'z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yo'lda chiqadi. Samarqand shahriga yaqin joy (eski Haftang) hozirgi Poyariq tumani Xartang qishlog'ini o'ziga manzil qiladi. U joyda ko'p yashamaydi va betob bo'lib qoladi va shu yerda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va o'sha Xartang qishlog'ida dafn etiladi.

Ming yillardan buyon Imom al-Buxoriyning qabri butun dunyoda yashayotgan millionlab musulmon xalqlarining ziyyaratgohiga aylangan.

Ziyyaratgoh sobiq SSSR davrida rahbariyat va xalqning nazaridan chetga qolib xarobazorga aylangan edi. Buning misoldida 1956 yilda sobiq SSSR rahbarlari neft zaxiralariga boy bo'lgan Livan davlati bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlash maqsadida Livan davlatining tanqli siyosat va jamoat arboblaridan biri, Livan parlament deputati, Shayx Nadim al-Jisri Moskvaga taklif etiladi. Bu muhtaram zotning asl maqsadi Moskvani ko'rish emas balki buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning qabrinizi ziyyarat qilish bo'ladi.

Kreml rejasiga ko'ra, shayxni Moskvadagi oliy o'quv yurflariga, shuningdek, Kiev, Yalta, Sochi, shaharlarida olib borish mo'ljallangan. Ammo mehmon takliflarni rad etib, asl maqsadi alloma Imom Buxoriy qabrinizi ziyyarat qilish ekanligini aytadi. Rasmiy doiralar tadbirlar qat'iy belgilanganini har qancha o'qtirishmasin, mehmon o'z niyatidan chekinmasligini, aks holda qaytib ketajagini bayon etadi. Qaytib ketish diplomatik aloqalarning barbob bo'lishi ekanligidan cho'chigan hukumat rahbarlari martabali mehmonning talabini qondirishga chora axtaradi.

Zudlik bilan SSSR fanlar akademiyasidan Imom Buxoriy haqida ma'lumot olinib Shayx Nadimni O'zbekistonda olib borish rejalshtiriladi. Va O'zbekiston rahbariyatiga bu haqda tezkor topshiriq beriladi. Toshkentning ysha vaqtidagi rahbarlari Imom Buxoriy atalgan shaxs bylsa, Buxorolik bo'ladi-da, gumoni bilan Buxoro viloyati rahbarlariga qo'ng'iroq qilib, ziyyaratgohni shoshilinch tartibga keltirish topshirig'ini beradi. Buxoro viloyati o'sha vaqtidagi rahbarlari, Toshkentga "Imom Buxoriyning qabri Samarqandda ekan" degan xabarni yetkaziladi. Samarqand viloyoti rahbarlari qabri axtarishga tushadi. Qabr Samarqand shahridan taxminan 15-20 kilometr uzoqlikda, hozirgi Payariq tumanining Xartang qishloqida ekanini bilishgach, borib ko'risha, vayrona va tashlandiq bir joyga aylangan. Ziyyaratgohni tartibga keltirish bir-ikki kunlik ish emasdi. Ba haqda Samarqand Toshkentga Toshkent yesa Moskvaga xabar qiladi. Rahbarlar har qancha harakat qilmasin u joyni bir-ikki kunga tartibga keltirish mumkin emasligini bildi. Shuning uchun vaqtini cho'zish chorasini uylab topishadi. Ya'ni, Moskvadan Toshkentgacha poezd 4 kunda yetib kelishi hisobiga vaqtidan yutib, ziyyaratgohni tartibga keltirish mumkin bo'ladi.

To'rt kecha kunduz yuzlab odam ishlashidan qat'iy nazar ziyyaratgohni mehmon tashrifi darajasida tartibga keltira olmaydi. Samarqandning bu xususidagi zoru nolasi Toshkentni cho'chitadi. Shayx Nadim yana bir kun Toshkentga ushlab ziyyarat bahonasida ushlab turiladi. Ertasi kuni shayxni tongda Samarqandga samalyotda olib kelishib, shaharni bir kun tomosha qildirashadi. Aytishlaricha, mehmon haqiqatda obidalarga maftun bo'lgan va Shohi Zindada Hazrat Qusam ibn Abbos qabri tepasida uzoq turib, ko'zda yoshi bilan Qur'on tilovat qilgan.

Ziyoratdan toliqkan mehmon shomdan keyin “Hazrati Imom Buxoriya mozoriga qachon boramiz”, deb so‘rab qoladi. Mezbonlar mammuniyat bilan fursatni boy bermay, zulmatli tunda uni Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga olib boradilar.

Ziyoratgohga yaqinlashgach mashinadan tushar-tushmas Shayx Nadimni qattiq hayajon chulg‘aydi. Qabrgacha qolgan masofani bilgach, mehmon ayog‘lariga tiz cho‘kib, yerni o‘padi va Hazrati Imom mozori tomonga tizzalab boradi. Qabr qoshiga yetgach, yana yerni o‘padi. So‘ngra ko‘zida yosh bilan tongga qadar Qur‘on tilovat qildi.

Tong otib, kun yorishgach, Shayx Nadim o‘zini nima uchun ataylab tunda olib kelishganlarini anglab, qabr va masjidning xarob ahvoldidan ko‘zda yosh oladi.

Bu voqeani o‘rgangan shoir Xurshid Davronning yozishicha, “Toshkentgacha Shayx Nadim hech kim bilan gaplashmadi. Poytaxtga yetib kelgach, O‘zbekiston rahbari bilan uchrashtrishni iltimos qildi. Xabarlarga ko‘ra shayx uchrashuvda shunday degan ekan: “Imom Buxoriy xoki turobini olib ketishga ruxsat beringlar, yevaziga o‘sha tuproqning og‘irligi qancha bo‘lsa, o‘shangga teng hajmida tilla olib kelishga va‘da beraman”. O‘zbekiston rahbaryati Imom Buxoriy tuprog‘ini qadr-qimmatini bilib rad javobini beradi.

Bu olamshumul voqeordan keyin 1986 yilda Sudan bosh vaziri Sodiq Mahdiy, Jahon Islom tashkiloti Bosh kotibi o‘rbbosari Muhammad Nosir al-Abbudiy, 1987 yil Malayziya Bosh vaziri Maxatxit Muhammed, Afg‘oniston Diniy ishlari va vaqf vaziri Abduljamil Zarify, 1988 yilda Marokash islam ishlari va vaqf vaziri Abdulkabir al-Alviva al-Mag‘ribiy, Quvayt Islom yodgorliklari markazi direktori Shayx Xessa as-Saboh xonim, 1989 yilda Indoneziya Prezidenti Suxarto Imom Buxoriy mozorini ziyorat qilishga kelgan aziz mehmonlardir.

Imom Buxoriydan juda boy ilmiy meros qoldirgan. Uning “Al-Jome’ as-sahih”, (“Ishonchli to‘plam”), “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix al-kibor”, (“Katta tarix”), “At-Tarix as-sag‘iyr”, (“Kichik ta’rix”), “Al-Qiroatu xalfa-l-Imon”, (“Imom ortida turib o‘qish”), “Vaf‘ul-yadini fi-s-Saloti” ( “Namozda ikki qo‘lni ko‘tarish”) kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. Ammo “At-Tarix al-avsat”, (“O‘rta tarix”), “At-Tafsir al-kabir”, (“katta tafsir”), “Al-Jome’ al-kabir” (“katta to‘plam”), “Kitob-ul-hiba” (“Hadya kitobi”) nomli asarlari mavjud bo‘lib, bular bizgacha yetib kelmagan.

Shubhasiz, bu asarlaridan eng yetuk, shoh asari “Al-Jome’-as-sahih” dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham dunyoda mashhur bo‘lib, 4 jilddan iborat mazkur kitobda Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadislaridan tashqari, islam huquqshunosligi, islam marosimlari, axloq-odob, ta’lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma‘lumotlar ham berilgan. Unga 600 yuz ming hadisdan 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritilgan bo‘lib, takrorlanmaydigan 4000 hadisdan iboratdir. Bu kitob islam ta‘limotida Qur‘oni karimdan keyingi manba hisoblanadi.

Ma‘lumki, Islom dini insonni yuksak ma‘naviy kamolot sari yetaklovchi ta‘limot hisoblanadi. Shu sababli Qur‘oni karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targ‘ib etilgan. “Ota-ona farzandiga odob-axloqdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi” (Hadis). Imom Buxoriy ham 4 jildli “Al Jome’ as-sahih” asarining bir jildida odob-axloq haqidagi hadislarni jam‘ etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli maxsus hadislar to‘plamini yaratadi. Bu asar 644 bobda bayon etilgan bo‘lib ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid 1322 hadisni o‘z ichiga oladi.

Demak hadislar Muhammad payg‘ambarning sunnatlari bo‘lib, mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan insonni ma‘naviy kamolotga da‘vat etadi. Islom dini ma‘rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga yetkazishga oid e’tiqod va imondan iborat bo‘lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyanob bo‘lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo‘l qo‘ymaslik, o‘z birodarining, qarindosh o‘rug‘larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrash avaylashdan iboratdir. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi va hozirgi globallashuv jarayonida undan yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalardan sanaladi.

#### Foydalilanlgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:”O‘zbekiston”, 2017
2. Karimov I. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. (al-Jom‘e as saxih). 1-k. Qomuslar bosh tahririyati.–T.: 1997. – 560 b.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekiston, 1990. – 199 b.
5. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. “ Sahihul-Buxoriy”, Dorul fikr, Bayrut, Livan. 1994/1414 y.
6. Ahmad ibn Hajar al-Asqloniy.”Fathul-Boriy sharhu Sahihil-Buxoriy”, Dorul rayyani lit-turos, Qohira, 1986. 1-nashr.
7. Olimov.Sh.Ma‘naviy-axloqiy tarbiya asoslari.Toshkent-2015 y.
8. Hoshimov.K, Nishonova.S, Inomova.M, Hasanov.R Pedagogika tarixi T.”O‘qituvchi” 1996 yil.
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. (al-Jom‘e as saxih). 1-k. Qomuslar bosh tahririyati.–T.: 1997. – 560 b.
10. Internet “Mehrob.uz “ ma‘lumotlari.